

INVESTITSION LOYIHALARNI TIJORAT BANKLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI VA ULARNI NAZORAT QILISH FUNKSIYALARI

Annotatsiya. *Maqolada investitsion loyihalarni moliyalashtirishning amaliy holatlari tahlil qilingan va ularning mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishdagi o'rnini o'rganilgan. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsion loyihalarning o'rnini tahlil qilingan. Investitsion loyihalarni tijorat banklari kreditlari orqali moliyalashtirish yuzasidan amaliy taklif va tavsiyalar keltirilgan.*

Tayanch so'zlar: *investitsion loyiha, kichik biznes, raqamli iqtisodiyot, tijorat bank, moliyalashtirish, kredit, foiz stavka.*

Kirish

Jahonda raqamli iqtisodiyot rivoji davrida bank xizmat turlarini zamonoviy texnologiyalarni qo'llash orqali ko'rsatishni tadqiq qilish kabi masalalarga e'tibor kuchayib bormoqda. Bu sohada bank xizmat turlarini samarali boshqarishning zamonaviy integrallashgan axborot tizimlarini joriy etish, tizim ma'lumotlarining shaffofligi va himoyalanihini ta'minlash, raqamli iqtisodiyot texnologiyalarini qo'llash hamda axborot tizimlarining o'zaro axborot integratsiyasini samarali ravishda amalga oshirish metodikasini takomillashtirish masalalari asosiy tendentsiyalardan hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalarning keng rivojlanishi tijorat banklari tomonidan xizmat turlarini axborot tizimlarini takomillashtirib borishni taqozo etmoqda.

Investitsion faoliyatni auditini tashkil etish tizimli yondashuvni taqozo etadi, uning doirasida ushbu tizim xo'jalik faoliyatini samarali yuritishning umumiy maqsadiga bo'ysundirilgan, o'z ichiga qonunchilik talablariga rioya etilishini, buxgalteriya hisobini yuritishning aniqligi va to'liqligini, ishonchli buxgalteriya hisobotini o'z vaqtida tayyorlashni, xatoliklar va buzib ko'rsatishlarga yo'l qo'yilmasligini, buyruqlar va ko'rsatmalarning bajarilishini, xo'jalik yurituvchi sub'ekt mol-mulkining saqlanishini ta'minlashni nazorat qilish va tekshirishni olgan elementlar yig'indisi sifatida qaraladi.

O'zbekistonda ham bank xizmat turlarini rivojlantirish xususan, unda axborot kommunikatsion texnologiyalardan keng foydalangan holda bank xizmatlarining yangi turlarini joriy etish masalasi bugungi kunda dolzarb hisoblanadi. Jumladan, banklar tomonidan kichik va yirik moliyaviy texnologiya kompaniyalari mijozlarga ko'rsatiladigan hizmatlarni yaxshilash uchun "sun'iy aql-idrok" (artificial intelligence) va raqamli texnologiyalardan keng foydalanilmoqda. Chunki, bozordagi yangi raqobatchilar barcha o'lchamdagi eski moliyaviy institutlarga tahdid sola boshladi. Shu bilan birga yangi texnologiyalar bank xizmatlari bozorida katta imkoniyatlar eshigini ochmoqda.

Bugungi kun voqeligi shuki, xo'jalik sub'ektlarining past investitsion faolligi tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishga to'sqinlik qilmoqda. Investitsion faollikni oshirish uchun xo'jalik yurituvchi sub'ektlardagi dastlabki va investitsion jarayonlarni audit tizimini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar olib borish juda muhimdir. Investitsion audit tizimini shakllantirish va rivojlantirish va uni xo'jalik yurituvchi sub'ekt ehtiyojlariga bo'ysundirish zarurati va dolzarbliigi mazkur maqola mavzusini va yo'nalishlarini tanlashni belgilab berdi.

Mamlakatda oxirgi yillarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish, tijorat banklari xizmat turlarining yangi mexanizmlarini joriy etish yuzasidan katta ishlar olib borilmoqda. Xususan, Prezidentning "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (Farmon, 2018), "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (Qaror, 2018),

“2020 yil – Ilm-ma’rifat va raqamli iqtisodiyot yili” deb e’lon qilinganligi hamda 2030 yilga qadar “Raqamli O’zbekiston” kontseptsiyasini ishlab chiqish belgilanganligi (Mirziyoev, 2019) bu borada bank tizimi oldiga qator vazifalarni bajarishni keltirib chiqaradi.

O’zbekistonda buxgalteriya hisobiga moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining joriy etilishi bilan mulkdorlar, aktsiyadorlar va investorlarning manfaatlarini himoya qilishga alohida e’tibor berilmoqda. Bu moliyaviy hisobotni audit qilish ta’sirchanligini oshirishni taqozo etadi. Buning uchun esa auditning xalqaro standartlariga (AXS) mos keladigan yuqori sifatli audit standartlari; auditorlik tashkilotlari va auditorlarning mustaqilligi haqidagi qat’iy tartib-qoidalar, ularga qo’yiladigan yagona malaka talablari, auditorlarning yuqori darajadagi malakasi, auditorlik tashkilotlari va auditorlar ishi sifatining birinchi galda professional ijtimoiy birlashmalar tomonidan nazorat etilishi auditorlik tashkilotlari va auditorlarni davlat va jamoatchilik tomonidan nazorat qilishning samarali tizimini tashkil etishga shart-sharoit yaratadi.

Yuqoridagi kontseptual g’oyalardan kelib chiqqan holda, mazkur maqola mavzusining dolzarb ekanligini asoslash mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Dunyoda axborot texnologiyalarining rivojlanishi jarayonida, raqamli iqtisodiyot atamasi yuzaga keldi va ushbu atama birinchi marta “Elektron raqamli jamiyat: tarmoq asrining afzalliklari va kamchiliklari” kitobida 1995 yilda ishlatilgan. Don Tapskot (2016) fikricha, bozor sub’ektlari faoliyatini raqamli transformatsiyalashning asosiy omili raqamli madaniyatni rivojlantirish hisoblanishi ta’kidlangan.

Amerikalik dasturchi Nikolas Negroponte (1995) tomonidan “raqamli iqtisodiyot” terminini amaliyotga kiritildi. Hozirda bu istilohni butun dunyodagi siyosatchilar, iqtisodchilar, jurnalistlar, tadbirkorlar – deyarli barcha qo’llamoqda. Butun jahon banki 2016 yilda dunyodagi raqamli iqtisodiyotning ahvoli haqida ilk ma’ruzasini e’lon qilindi.

“Raqamli iqtisodiyot” atamasi ilmiy amaliyotga ispaniyalik va amerikalik sotsiolog, axborotlashgan jamiyatning yetakchi tadqiqotchisi Manuel Kastels (1999) tomonidan kiritilgan. Bu borada u o’zining “Axborot davri: iqtisod, jamiyat va madaniyat” nomli uch jildli monografiyasi chop etilgan. Uning fikricha raqamli iqtisodiyot atamasi ikki xil turdagi tushunchalarni ifodalaydi:

- birinchidan, raqamli iqtisodiyot – bu rivojlanishning zamonaviy bosqichi hisoblanib, u ijodiy mehnat va axborot ne’matlarining ustuvor o’rni bilan tavsiflanadi.

- ikkinchidan, raqamli iqtisodiyot – bu o’ziga hos nazariya bo’lib, uning o’rganish ob’ekti, axborotlashgan jamiyat hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyot nazariyasi o’z rivojlanishining boshlang’ich davridadir, chunki sivilizatsiyaning raqamli axborot bosqichiga o’tishi bir necha o’n yil avvallari boshlangan.

Ushbu tushunchalarni bog’lab turadigan omil – bu iqtisodiy jarayonlarning globallashtirishida axborot texnologiyalarining birlamchi o’rinni egallashi bo’lib hisoblanadi.

Raqamli iqtisodiyot terminiga bir qator mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan ham ta’riflar berilgan. Jumladan, Umarov (2018) – “Raqamli iqtisodiyot bu iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni raqamli texnologiyalarni qo’llash asosida amalga oshirish tizimidir. Ba’zida u internet iqtisodiyoti, yangi iqtisodiyot yoki veb-iqtisodiyot degan terminlar bilan ham ifodalaydi” deb ta’rif bergan.

Fikrimizcha, raqamli iqtisodiyot, bu — alohida faoliyat turi emas. Bu, aslida, ishbilarmonlik, sanoat ob’ektlari, xizmatlar deganidir. “Raqamli” atamasi mazkur sohalarning barchasi axborot texnologiyalaridan faol foydalanishni anglatadi. Agar oddiy iqtisodiyotda moddiy buyumlar asosiy resurs hisoblansa, raqamli iqtisodiyotda bu qayta ishlanadigan hamda uzatiladigan axborot, ma’lumotlar bo’ladi. Ularning tahlilidan so’ng to’g’ri boshqarish bo’yicha yechim ishlab chiqiladi.

Mamutning (2009) xulosasiga ko’ra, kichik biznes sub’ektlarini mikroreditlash amaliyotini rivojlantirish uchun banklar va nobank kredit tashkilotlarining mikroredit operatsiyalari Markaziy bank tomonidan nazorat qilinmasligi kerak.

Nobel mukofotining sohibi, M.Yunusning xulosasiga ko’ra, endi ish boshlayotgan kichik biznes sub’ektlarini kreditlashda asosiy e’tibor kreditlashning ijtimoiy samarasiga qaratilishi

kerak. Tadbirkorlik sub'ektlarining moliyaviy imkoniyatlari kengaygandan so'ng, ular bozor stavkalarida beriladigan kreditlarga bo'lgan talabning oshishiga sababchi bo'lishadi (Yunus, 2010).

F.Allen va D.Geyl kichik va o'rta biznes sub'ektlari faoliyatini moliyalashtirishning ikki tizimi – banklar faoliyatiga asoslangan tizim va moliya bozorlariga asoslangan tizimning mavjudligini e'tirof etishadi va bunda birinchi tizimning nisbatan muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlashadi (Allen va Geyl, 2000).

Fikrimizcha, F.Allen va D.Geylning mazkur xulosasi o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari uchun muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Buning sababi shundaki, birinchidan, mazkur mamlakatlarda kichik biznesni kreditlash tizimida tijorat banklari yetakchi mavqega ega; ikkinchidan, kichik biznes sub'ektlari uchun qimmatli qog'ozlar bozori orqali resurslar jalb qilish imkoniyati mavjud emas.

Shanel-Reyno va Bluaning (2001) xulosasiga ko'ra, kichik va o'rta korxonalarining yirik korxonalar bilan aloqalarini yaxshi yo'lga qo'yilishi ularning tijorat banklari kreditlaridan foydalanish imkoniyatini oshiradi. Chunki, yirik korxonalar kichik va o'rta korxonalar bilan ishbilarmonlik munosabatlariga kirishishdan oldin ularning bozor talablariga javob bera olishini tahlil qiladi. Shuningdek, yirik korxonalar hamkori bo'lgan kichik va o'rta korxonalarining holatini doimiy ravishda nazorat qiladi.

J.Shanel-Reyno va E.Bluaning mazkur ilmiy xulosasi taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasining tahliliga asoslangan va shu jihatdan ishonchli hisoblanadi. Ular tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar aniq ma'lumotlar tahliliga asoslangan bo'lib, yirik biznesning kichik va o'rta biznes sub'ektlari faoliyatini rivojlanishida muhim rol o'ynashini asoslashga xizmat qiladi.

D.Mak Notonning (1994) fikriga ko'ra, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari uchun likvidli ta'minot vazifasini bo'lg'usi hosil o'taydi. Ammo qurg'oqchilik bo'lsa, ular mo'ljallangan miqdorda hosilni yig'ishtirib olisha olmaydi. Shu sababli, bo'lg'usi hosil qurg'oqchilikdan, tabiiy ofatlardan sug'urtalangan bo'lishi kerak.

D.Mak Notonning xulosasi AQSh va G'arbiy Yevropa amaliyotiga mos keladi. Haqiqatdan ham, taraqqiy etgan mamlakatlarda sug'urta kompaniyalarining reputatsiyasi yuqori bo'lib, ularning sug'urta polisi tijorat banklari uchun ishonchli ta'minot ob'ekti hisoblanadi. Buning ustiga, bo'lg'usi hosilni ular tomonidan sug'urta qilinganligi qurg'oqchilikning yuz berishi natijasida olinmagan hosil tufayli yuzaga keladigan kredit riski muammosining chuqurlashishini oldini oladi. Ammo O'zbekiston Respublikasida fermer xo'jaliklariga berilgan va sug'urta hodisasi tufayli qaytmagan kreditlarni sug'urta kompaniyalaridan, shu jumladan, Agrosug'urta kompaniyasidan undirishda muammolar mavjud (Boymuratov, 1998).

Fikrimizcha, iqtisodchi olimlarning kichik biznes sub'ektlari faoliyatini moliyalashtirishni takomillashtirishga qaratilgan xulosalari, taklifi va tavsiyalarini respublikamiz amaliyotida qo'llash imkoniyatlarini asoslab berish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ichki audit va nazoratga oid muammolarni ilmiy jihatdan ishlab chiqishning hozirgi holati mutaxassislarining uning mohiyatini tahlil qilishga tabaqalashtirilgan yondashuvi bilan tavsiflanadi. Audit nazariyasini rivojlantirishga ko'plab mahalliy va xorijiy mualliflar hissa qo'shganlar, jumladan: K.B.Axmedjanov, R.Dusmuratov, A.A. Karimov, A.K. Ibragimov, Sh.I. Ilxamov, Z.T. Mamatov, M.M.Tulaxodjaeva, B.A. Xasanov, R.A. Alborov, V.D. Andreev, V.G. Afanasev, N.G. Gadjiev, Yu.A. Danilevskiy, A.K. Makalskaya, M.V. Melnik, V.I.Podolskiy, A.D.Sheremet va boshqalar.

Boshqaruv nazariyasi bo'yicha mutaxassislar boshqaruv faoliyatining uch bosqichini (maqsadni loyihalash va belgilash; qabul qilingan qarorni amalga oshirishni tashkil etish; bajarilishini nazorat qilish) ajratib ko'rsatib, nazoratni boshqaruv siklining maxsus bosqichi sifatida izohlaydilar. Sh.I.Ilxamov nazoratga erishilgan natijalarni rejalashtirilgan natijalar bilan solishtirish imkonini beruvchi boshqaruv faoliyatining yakuniy bosqichi sifatida qarash ilmiy adabiyotlarda mustahkam o'rin olgan nuqtai nazar ekanligini qayd etadi. Aksincha, R.D.Do'smuratovning ta'kidlashicha, bunday yondashuv ko'rib chiqilayotgan hodisaning faqat bir tomonini aks ettiradi va shuning uchun ilmiy to'liqlikka da'vo qila olmaydi. Nazoratni butun

uzunligi davomida boshqaruv qarorlarini qabul qilish va amalga oshirish jarayonining ajralmas qismi sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Ba'zi olimlar nazoratni belgilangan maqsadlarga muvaffaqiyatli erishishga qaratilgan qabul qilingan boshqaruv qarorlariga muvofiq ob'ektning ishlashini ta'minlaydigan mustaqil jarayon sifatida tavsiflaydilar. L.V Sotnikovaning so'zlariga ko'ra, "nazorat - bu muntazam va uzluksiz jarayonlar majmui bo'lib, ular orqali ularning ishtirokchilari qonuniy shaklda davlat sektorining samarali faoliyat yuritishini, shuningdek, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, boshqa xo'jalik yurituvchi subektlar faoliyatini ta'minlaydi". Ikkala ta'rif ham nazorat maqsadining ko'rsatkichini o'z ichiga oladi, lekin uning mazmunini ham, uni amalga oshirish usullarini ham aks ettirmaydi.

Bugungi kunga qadar raqamli iqtisodiyot rivojida innovatsion texnologiyalarining ilmiy-amaliy masalalari bo'yicha quyidagi mahalliy olimlar V.Q.Qobulov, A.N.Aripov, S.S.G'ulomov, B.A.Begalov, A.A.Musaliev, O.T.Kenjaboev, Q.Alimov, R.A.Dadabaevlar tomonidan o'rganilgan hamda milliy iqtisodiyot rivojida raqamli texnologiyalar o'rni masalalariga bag'ishlangan ilmiy ishlar olib borilgan. Ammo banklarning faoliyatlariga axborot tizimlarini joriy etish usullari, avtomatlashtirilgan axborot tizimlari asosida modellashtirish tamoyillari, banklar faoliyatida avtomatlashtirilgan axborot tizimlaridan foydalanish samaradorliklari, ularning o'zaro aloqadorligi, raqamli iqtisodiyotning rivojlanish shart-sharoitlari kabi muhim jihatlar chuqur ilmiy-nazariy o'rganilmagan. Raqamli iqtisodiyot rivojida innovatsion texnologiya va g'oyalarni ilmiy ishlab chiqilishi va shuning negizida qonuniy – me'yoriy asosini takomillashtirish davriy xarakterga ega, ammo islohotlar rivoji doimiydir. Kecha yaxshi natijalar bergan har qanday iqtisodiy amaliyot bugungi kun talablariga javob bermasligi mumkin, bu esa o'sha amaliyotni takomillashtirishni yoki yangisini yaratishni taqozo etadi. Bu esa mazkur tadqiqot mavzuining dolzarbligini yanada oshiradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalari orqali faoliyat yuritadigan kichik biznes sub'ektlarining moliyaviy muammolarini tijorat banklari kreditlari orqali bartaraf etishning quyidagi ijobiy natijalari jumladan, mamlakat YaIM hajmi oshishi, aholi daromadlari ko'payishi va aholi bandligi darajasi oshishiga ijobiy ta'sir etishi aniqlandi. Buning uchun davlat statistika qo'mitasining oxirgi 10 yillik ma'lumotlaridan foydalanib, mamlakatda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik sub'ektlarida band bo'lgan aholi soni va tadbirkorlik sub'ektlariga tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi aynan tadbirkorlik sub'ektlari ulushiga o'zaro bog'liqligining korrelyatsion-regression tahlillari amalga oshirildi.

Tanlanma korrelyatsiya koeffitsientiga ko'ra, kichik biznes sub'ektining YaIMdagi salmog'iga mazkur sohada band bo'lganlar sonining ta'sirchanligi yuqori bo'lib, $R=0,9597$ ga tengligi hamda tadbirkorlik sub'ektining YaIMdagi salmog'iga tadbirkorlik sub'ektlariga ajratilgan bank kreditlarining ta'sirchanligi ham yuqori ya'ni $R=0,7686$ ga tengligi aniqlandi.

Yuqoridagi regression tahlillardan quyidagi xulosalarni keltirib o'tish mumkin: faoliyat yuritayotgan kichik biznes sub'ektlarida ish bilan band bo'lganlar sonining 1 foiz punktga oshirilishi YaIM dagi kichik biznes sub'ektlari salmog'ining 8.056 foizga oshishiga olib keladi.

Investitsion faoliyatga oid atamalar, tushunchalar ularni baholashning alohida qoidalari normativ-huquqiy hujjatlarda o'z aksini topgan. Audit jarayonida ularning ishonchliligini baholashda tizimli tahlil va kontseptual asoslarining ilmiy metodologik apparatini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy maqolada ko'tarilgan muammoni atloficha tahlil qilish, tahlil natijalarini tizimlashtirish asosida ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishda induksiya va deduktsiya, taqqoslash, adabiyotlar sharhi, miqdor va sifat ko'rsatkichlar hisoblash, maqsadli rivojlantirish kabi usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

O'zbekiston iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning zaruriy shartlaridan biridir. Ayni vaqtda, kichik biznes sub'ektlari faoliyatini yanada rivojlantirish, uning mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyatini yanada oshirish ular faoliyatini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shu o'rinda e'tirof etish joizki, dunyo iqtisodchi olimlari tomonidan turli davrlarda kichik biznes sub'ektlari faoliyatini moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan. Ayni damda, O'zbekiston Respublikasida kichik biznes sub'ektlari faoliyatini moliyalashtirish tizimini shakllantirilganligini ta'kidlashni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Mazkur tizim kichik biznes sub'ektlarini moliyalashtirish jarayonini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni, kichik biznes sub'ektlari eksportini qo'llab-quvvatlash tuzilmasini hamda banklar va nobank kredit tashkilotlari tomonidan mazkur sub'ektlar faoliyatini kreditlash amaliyotini o'z ichiga oladi.

Xususan, biznes sub'ektlarini moliyalashtirish jarayonini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashda soliq imtiyozlari muhim o'rin tutmoqda. Tadbirkorlik sub'ektlarini ro'yxatga olish uchun undiriladigan davlat boji stavkasi ikki barobarga qisqartirildi, ishchilarning o'rtacha yillik soni 100 kishigacha ko'paytirilgan kichik korxonalar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxati sezilarli darajada kengaytirildi, yangi tashkil qilingan kichik korxonalar va mikrofirmalarni rejali soliq tekshiruvlaridan ozod etish muddati ikki yildan uch yilga uzaytirildi, penyani hisoblash tartibi saqlangan holda, amaldagi miqdoriga nisbatan uchdan bir qismga kamaytirildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki huzurida "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining eksportini qo'llab-quvvatlash" jamg'armasini tashkil etilganligi va uning faoliyatini davlat tomonidan rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirilayotganligi kichik biznes sub'ektlarining eksportini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi davrda Jamg'arma tomonidan kichik biznes sub'ektlariga tashqi bozorlarni o'rganish, chet ellik hamkorlarni topish, xalqaro tender savdolarida ishtirok etish, eksport shartnomalarini tuzish, xalqaro sertifikatlarni olish va bojxona rasmiylashtiruv bo'yicha amaliy yordam ko'rsatilmoqda.

Mazkur jamg'armaning tashkil etilganligiga ko'p vaqt bo'lmagan bo'lsa-da (u 2013 yilning avgust oyida tashkil qilingan), kichik biznes sub'ektlarining eksportini rivojlantirishga qo'llab-quvvatlash borasida muhim yutuqlarga erishildi. Agar 2013 yilning avgust-dekabr oylarida Jamg'arma tomonidan huquqiy, moliyaviy va tashkiliy xizmatlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga ko'rsatilgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2015 yilda 2399 tani, 2020 yilda esa, 3213 tani tashkil etdi. Birgina 2020 yil davomida Jamg'arma ko'magida 409 ta tadbirkorlik sub'ekti tomonidan 2 mlrd. 230 mln. AQSh dollari miqdorida eksport shartnomalari imzolanib, ularga muvofiq, 1 mlrd. 45 mln. AQSh dollari miqdorida eksport qilindi. Bu esa, 2019 yilga nisbatan 24 foizga ko'p demakdir.

Shu o'rinda e'tirof etish joizki, mamlakat tijorat banklarining kreditlari kichik biznes sub'ektlari faoliyatini moliyalashtirish tizimida muhim o'rin tutmoqda. Banklarning qisqa muddatli kreditlari kichik biznes sub'ektlarining aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda muhim ahamiyat kasb etayotgan bo'lsa, ularning uzoq muddatli kreditlari kichik biznes sub'ektlari faoliyatini modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta qurollantirish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarini moliyalashtirishning muhim manbai hisoblanadi.

1-jadval.

2020 yil uchun I-DESI subindekslari¹

Mamlakatlar	Raqamli (I-DESI) indeksi	Bog'lanish darajasi	Inson kapitali	Internetdan foydalanish	Raqamli texnologiyalar integratsiyasi	Raqamli davlat xizmatlari
Janubiy Koreya	75,2	79,8	75,6	74,5	63,8	83,0
Norvegiya	73,0	75,8	69,1	85,2	65,8	72,5
Islandiya	72,7	72,4	80,2	75,9	75,7	53,7
Yaponiya	68,5	72,5	69,7	73,9	53,0	75,0

¹ Manba: European Commission. I-DESI 2019 – maълumotlari asosida tayёрланди.

Avstraliya	67,8	56,8	80,5	57,8	57,3	88,9
Kanada	67,0	59,6	67,3	66,2	65,4	81,5
AQSh	66,7	71,3	56,2	71,0	61,8	79,0
Yangi Zelandiya	65,8	55,4	79,3	58,2	55,6	81,6
YeIning davlati	28 58,9	62,9	58,0	59,7	51,3	63,1
Isroil	55,6	54,3	57,4	58,5	45,2	65,4
Rossiya	47,5	38,9	64,1	48,7	29,8	56,8
Xitoy	45,3	47,8	40,5	45,3	40,7	58,6
Chili	44,9	47,8	42,6	32,9	40,5	61,4
Turkiya	41,5	43,3	53,1	35,9	27,7	43,2
Braziliya	39,7	39,5	39,2	33,8	27,8	62,4
Meksika	43,1	45,5	41,6	30,0	33,7	67,2

1-jadval ko'rsatkichlariga ko'ra, Janubiy Koreya, Norvegiya va Islandiya birinchi uchta likni egallab turibdi. Rossiya esa yetakchilik qilayotgan Janubiy Koreya davlatidan 27,7 ko'rsatkichga ortda qolmoqda, ammo Xitoy, Chili, Turkiya, Braziliya va Meksika davlatlaridan yuqori pog'onalardan joy olgan. Umuman, Rossiya bugungi kunda raqamli iqtisodiyotni joriy qilish jarayonida yuqori potentsialga ega davlat, deb tan olinadi.

"The Boston Consulting Group" ma'lumotlariga ko'ra, Xitoydagi elektron tijoratni rivojlantirishning yuqori darajasi e'tiborni tortmoqda. Bunda Xitoyning elektron tijorat aylanmasi 18 milliard dollarni tashkil etib, ushbu davrda Xitoylik iste'molchilar internet sotib olish uchun taxminan 750 milliard dollar sarflaydilar, bu AQSh va Buyuk Britaniya ko'rsatkichlarini birga qo'shib hisoblagandan ham ko'proq. Umuman, Xitoy Savdo vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2016 yil oxirigacha mamlakatning xalqaro elektron tijoratda ulushi 39,2 foizni tashkil etdi. Shu bilan birga, mamlakatda 2016-2022 yillarda qabul qilingan tarmoqni rivojlantirish dasturiga muvofiq, elektron tijorat hajmi 5 yil ichida 5,8 trln. AQSh dollari. "McKinsey & Company" institutining taxminlariga ko'ra 2025 yilga kelib raqamli texnologiyalar Xitoy yalpi ichki mahsulotining 22 foizga, Rossiya uchun esa 34 foizgacha oshishiga olib keladi. 2025 yilgacha AQShda raqamli texnologiyalarning yaratilishidan kutilayotgan harajatlar 1,6-2,2 trillion AQSh dollari darajasiga yetishi mumkinligi ko'rsatib o'tilgan.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, investitsion jarayonning auditni tashkil qilishga, shuningdek ichki nazorat tizimini shakllantirish va rivojlantirishga ta'sir ko'rsatadigan asosiy xususiyatlari quyidagilardir:

- investitsion faoliyat sub'ektlarining turli-tumanligi;
- investitsiyalar ob'ektlarining keng doirada ekanligi;
- investitsion loyihalar davomiyligi (loyihalar hayot sikllari)ning variantlilik;
- investitsion jarayon sub'ektlarining o'z kuchi bilan aktivlarning saqlanganligini nazorat qila olmasligi;
- tekshiruvlarning bir yo'la bir nechta sub'ektlar tomonidan amalga oshirilishi;
- investitsion loyiha bo'yicha ishlarning ham o'z kuchi bilan, ham tashqi tashkilotlarni jalb qilgan holda bajarilishi.

Investitsion jarayonda investitsion faoliyatning ancha ko'p sonli sub'ektlari ishtirok etadi, ular esa o'z oldiga turli maqsad va vazifalarni qo'yadilar, shu sababli bir tomondan, ular iste'mol qiladigan oraliq va natijaviy axborotning bir-biridan farq qilishi, ikkinchi tomondan, auditorning ushbu axborotning ishonchligini ta'minlashga qaratilgan turli tartiblardan foydalanishi ham shu bilan belgilanadi.

Investitsion loyihalarga taalluqli axborot iste'molchilarining kamida quyidagi guruhlarini ajratish mumkin:

- axborotning ichki foydalanuvchilari. Ularga, birinchi navbatda, investitsiyalash ob'ektidan foydalanuvchilar kiradi. Ularni ma'muriy vakolatlarga ega bo'lgan ichki iste'molchilarga (korxonada direktori, loyiha rahbari, moliyaviy direktor va h.k.) hamda investitsion loyihalar bo'yicha axborotdan u yoki bu tarzda foydalanuvchi tashkilotning boshqa xodimlariga (iqtisodchilar, moliyachilar, buxgalterlar va x.k.) ajratish mumkin;

- axborotning tashqi foydalanuvchilari. Ularga investitsion faoliyatning u yoki bu loyihaga mablag' kiritish yoki kiritmaslik haqida qaror qabul qiluvchi sub'ektlari kiradi;

- axborotning loyihadan tashqari foydalanuvchilari: bank, sug'urta, tashkilotlari, vositachilik va boshqa xizmatlarni ko'rsatuvchi yuridik shaxslar;

- axborotning davlat tuzilmalariga tegishli bo'lgan foydalanuvchilari: soliq inspeksiyalari, sud organlari, davlat moliyaviy nazorat organlari, davlat hokimiyati organlari va boshqalar.

Investitsion jarayonga tegishli axborotdan foydalanuvchilar guruhlarini ajratish uni audit va ichki nazorat maqsadlari uchun bo'g'inlarga bo'lish hamda uning mahfiyligini ta'minlash imkonini beradi. Axborot quyidagi belgilar bo'yicha bo'g'inlarga bo'linishi mumkin:

- u yoki bu iste'molchilar guruhlariga taqdim etish hajmlariga qarab;

- nazorat sub'ektlari bo'yicha. Bunday bo'g'inlash jarayonida bevosita tashqi auditor va ichki nazorat tizimi tomonidan tekshiriladigan axborot ajralib chiqadi. Fikrimizcha, ichki foydalanuvchilar guruhiga taalluqli axborotning ishonchligini nazorat qilishni ichki nazorat kuchlari bilan ta'minlashi mumkin, davlat hokimiyati organlari esa tashqi mustaqil nazoratdan o'tgan axborot bilan ishlashlari kerak;

- qo'llaniladigan auditorlik amallari bo'yicha. Axborot turlicha bo'lgani bois turli auditorlik amallaridan, shuningdek, turli axborot bo'g'inlari auditini tashkil qilish uchun ichki nazorat amallaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, investitsion jarayonlar auditini tashkil qilishning tizimli hal qiluvchi omillaridan biri shundan iboratki, axborotdan foydalanuvchilar guruhlarining manfaatlari yo'lida nazorat tadbirlari o'tkaziladi.

Investitsion loyihalar auditining o'ziga xos xususiyatlari ular davomiyligining ko'p qirraligi bo'lib, bu loyihalarning turli hayot sikllarida namoyon bo'ladi. Investitsion faoliyat auditini va uning ichki nazoratini tashkil qilish nuqtai nazaridan investitsion loyihalarning quyidagi turlarini ajratish mumkin:

1) bir hisobot yilidan kam davomiylikka ega qisqa muddatli investitsion loyihalar. Loyihalarning ushbu toifasiga amal qilayotgan biznesni, mahsulot ishlab chiqarishga tayyor quvvatlarni (texnologik liniyalar, majmualarni) sotib olish, shuningdek, nomoddiy aktivlar (tovar belgilari, litsenziyalar, patentlar)ga mablag'lar kiritishga asoslangan investitsiyalar kiradi. Auditni tashkil qilish nuqtai nazaridan ko'rsatib o'tilgan investitsion loyihalar majburiy yillik audit jarayonida uning bir qismi sifatida ham, mustaqil tekshiruv sifatida ham tahlil qilinishi mumkin. Bunday loyihalar bo'yicha audit ob'ektlari investitsion audit uchun xos tarkibiy qismlarni ham (loyiha-smeta hujjatlari), natijaviy ma'lumotlarni ham (ishlab chiqarish hisobotlari, buxgalteriya va moliyaviy hisoboti) o'z ichiga oladi. Ayni shu sababli qisqa muddatli investitsion jarayonlar auditini tashkil qilish kompleks iqtisodiy tahlil, rejali va amaliy ko'rsatkichlarni tahlil qilishni qamrab oladi;

2) bir hisobot yilidan ko'proq davomiylidagi uzoq muddatli investitsion loyihalar. Ularni quyidagilarga bo'lish mumkin:

- natijalar investitsion davr oxirida olinadigan uzoq muddatli loyihalar. Bu holda hisobot davri davomida auditni tashkil qilishda ob'ektlar sifatida faqat loyihaviy va rejali ma'lumotlar ishtirok etadi, natijaviy ma'lumotlar esa (masalan, tayyor mahsulot hajmining ortishi) faqat bir necha yildan keyin tekshiriladi. Audit metodikasida nazoratning hujjatlashtirish usullariga ko'proq e'tibor qaratish kerak, chunki faktik nazorat uchun ob'ektlar soni yetarlicha bo'lmasligi mumkin. Shundan kelib chiqib, ichki auditning mustaqil tashqi nazorat uchun axborot manbasi sifatidagi roli bir necha marta oshadi;

- natijalar investitsion davrning o'zidayoq olinadigan uzoq muddatli loyihalar. Bunday investitsion loyihalar auditini tashkil qilish nazorat ob'ektlarining doim o'zgarib turishi (natijaviy ma'lumotlar, reja ko'rsatkichlari o'zgarishi) bilan ajralib turadi, chunki loyihani joriy etish davomida uning bosqichlari va parametrlari olingan natijalarga qarab tuzatib boriladi. Shu munosabatda bunday investitsion loyihalar auditini tashkil qilish nazorat ob'ektlari va me'yoriy axborotni tezkor tuzatib borishnigina emas, balki loyiha parametrlarining qanchalik asosli tuzatilganini baholash uchun ekspertlarni jalb qilishni ham ko'zda tutishi kerak.

Investitsion faoliyatni nazorat qilish xususiyatlarini aks ettiruvchi yana bir murakkab masala, - bu bir vaqtning o'zida bir nechta sub'ektlar (ichki auditor, tashqi auditor, davlat moliyaviy nazorat organlari, bank va sug'urta tashkilotlari) tomonidan tekshiruvlarni amalga oshirish. Turli sub'ektlarning nazorat ob'ektlari biz tomonimizdan 2-jadvalda tizimlashtirib berilgan.

2-jadvalni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bir xo'jalik sub'ektini bir davrning o'zida bir xil masalalar bo'yicha turli nazorat sub'ektlari tekshirishi mumkin, ayrim masalalar bo'yicha esa tekshiruvni faqat ichki auditor olib boradi. O'ylaymizki, bunday vaziyat ko'p jihatdan turli nazorat organlari o'rtasidagi o'zaro ta'sirning mukammal emasligi bilan izohlanishi mumkin. Faqat shuni aytish kerakki, bir ob'ektni tekshirish funktsiyalarning takrorlanishini anglatmaydi, chunki tekshiruvlar axborotdan foydalanuvchilarning turli guruhlarini manfaatlarini ko'zlab amalga oshiriladi va nazorat axboroti turli darajada detallashtiriladi. Shu bilan birga, funktsiyalarni va nazorat ob'ektlarini samarali ajratgan holda takrorlanish samarasini birmuncha kamaytirish mumkin. O'ylaymizki, ichki audit xizmati tomonidan samarali, tezkor va uslubiy ta'minlangan nazoratning amalga oshirilishi, shuningdek, nazorat standartlarining soddalashtirilishi – nazoratni investor, banklar, sug'urta tashkilotlari, davlat organlari va qisman tashqi auditorlar zimmasidan ichki audit tizimiga ko'chirish imkonini beradi. Bunday holda nazoratning boshqa barcha sub'ektlari o'z ishini ichki auditorlardan olingan ma'lumotlarni hisobga olib tashkil qiladilar, bu esa, fikrimizcha, xo'jalik sub'ekti – investitsiyalarni oluvchining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tekshirishlar sonini tartibga solish (kamaytirish)ga yordam beradi.

2-jadval

Turli sub'ektlar tomonidan amalga oshiriladigan investitsion faoliyatning nazorat ob'ektlari

Nazorat ob'ektlari	Nazorat sub'ektlari				
	ichki auditor	investorning vakillari	banklar, sug'urta tashkilotlari	Davlat moliyaviy nazorat organlari	tashqi auditor
A	1	2	3	4	5
Loyiha-smeta hujjatlarining sifati	+	+	-	-	+
Investitsion loyihaning bajarilishini bosqichma-bosqich nazorat qilish	+	+	+	-	+
Moliyaviy va boshqa taxminiy axborotlar	+	+	-	-	+/-
Kassa muomalalari	+	+	+	+	+
Moddiy boyliklar saqlanadigan ombor	+	-	-	+	+
Mexnatga haq to'lash	+	-	-	+	+
Uzoq muddatli aktivlar hisobini tashkil etish	+	+	+	+	+
Uzoq muddatli aktivlarni saqlash sharoitlari	+	-	-	+	-

Debitorlik qarzlari: – umumiy – debitorlar bo'yicha	+ +	+ +	+ +	+ +	+ +
Kreditorlik qarzlari: - umumiy - kreditorlar bo'yicha - byudjet bilan hisoblashlar bo'yicha	++ +	+ +	+ +	+ +	+ +
Xo'jalik faoliyatining tahlili	+	+	-	+	+
Hujjatlar aylanishi	+	-	-	-	-
Lavozim yo'riqnomalarini bajarilishi	+	-	-	-	+/-
Ichki xo'jalik buyruq va farmoyishlarni bajarilishi	+	-	-	-	+/-
Jarayonlar: - tayyorlov - ishlab chiqarish - sotish	+ + +	- -	- -	- -	- -
Mahsulot sifati	+	+	-	-	-
Konsalting	+	-	-	-	- / +
Tavsiyalar	+	+	-	-	+


Investitsion jarayon xususiyatlarining ta'sirini baholash asnosida biz tashqi va ichki nazoratni o'zaro muvofiqlashtirishga imkon beruvchi chora-tadbirlarni taklif etishga harakat qildik. Investitsion faoliyatning tashqi va ichki auditini tashkil qilish shunday jarayonki, unda nafaqat tashkiliy va uslubiy, balki texnik muammolar ham hal etiladi. Tadqiqot jarayonida biz xo'jalik sub'ektlari – investitsiyani oluvchilarning tashqi va ichki auditi amal qilishining tashkiliy bosqichlarini ajratib berdik (1-rasm).

Aytish joizki, ichki va tashqi auditning o'zaro ta'sirini investitsion auditning har bir tashkiliy-texnologik bosqichida ta'minlash mumkin va maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, ichki nazorat va xususan, ichki audit tizimining axboroti nazoratning boshqa barcha turlari va sub'ektlari uchun asosiy baza bo'lishi kerak. Xo'jalik sub'ekti investitsion auditning birinchi tashkiliy bosqichi umumiy maqsad va vazifalarni aniqlash bosqichi bo'lishi kerakki, ularga erishish u yoki bu darajada ham tashqi, ham ichki auditor ishining sifat ko'rsatkichi vazifasini o'taydi. Ushbu bosqich xo'jalik sub'ekti hujjatlarini, jumladan investitsiyalash jarayonlariga tegishli bo'lmagan, biroq xo'jalik sub'ektining o'zi tomonidan nazorat vazifalari va maqsadlarini eng maqbul tarzda integratsiyalash uchun korxonaning strategik, taktik va tezkor maqsadlarini ("ichki va tashqi audit" aloqasi o'rtasida ham) belgilash imkonini beradigan hujjatlarni tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

Shuni ham alohida aytish joizki, tashqi va ichki investitsion auditni tashkil qilish bo'yicha olib boriladigan ishlarning natijalari oldingi tashkiliy bosqichlarga ta'sir qilishi mumkin. Masalan, nazorat rejalari va dasturlarini puxta ishlab chiqish u yoki bu strategik va lokal maqsadlar va vazifalarni aniqlashtirish zaruratini keltirib chiqarishi mumkin.

Ichki audit xizmati to'g'risida nizomni investitsion auditning tashkiliy bosqichi hisobida aniqlashtirishda ichki audit xizmati ichida huquqlar va majburiyatlarning, barcha toifadagi xodimlar vakolatlarining taqsimlanishini, ichki audit xizmati va uning tarkibiy bo'linmalarining hisobdorligini aniqlashtirish talab etiladi. Ushbu bosqichda nazorat axboroti bilan eng yuqori

darajadagi samaradorlik bilan va to'liq ayirboshlashni tashkil qilish uchun ichki firma auditorlik standartlari ishlab chiqilishi va ular ichki auditni o'tkazish metodikasi bilan uyg'unlashtirilishi kerak. Buning uchun axborot ham ichki, ham tashqi auditor tomonidan umumiy kelishilgan kontsepsiyalar, tamoyillar, metodikalar asosida shakllantirilishi kerak.



1-rasm. – Tashqi va ichki investitsion auditning tashkiliy bosqichlari

Shunday qilib, investitsion faoliyat xususiyatlari ichki va tashqi audit tizimining amal qilishigagina emas, balki har qanday samarali faoliyat yuritayotgan xo'jalik sub'ektining ajralmas qismi sifatida ularning shakllanishi va o'zaro ta'sir qilishi jarayoniga ham ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqotlar davomida aniqlagan bir qator investitsion audit xususiyatlari, masalan, investitsion faoliyat sub'ektlarining turli-tumanligi va investitsiyalar ob'ektlarining kengligi, ichki audit xizmati xodimlari zimmasiga muayyan huquq va majburiyatlarni yuklash zarurligini belgilaydi. Fikrimizcha, alohida xodimlarning ham, umuman ichki audit xizmatining ham investitsion audit maqsadlari va vazifalarini aks ettiruvchi huquq va majburiyatlari ichki boshqaruvning quyidagi hujjatlarida ifodalanishi kerak:

- ichki audit xizmati to'g'risidagi nizomda;
- ichki audit xizmatining ichki siyosati to'g'risidagi nizomda;
- ichki audit standartlarida;
- ichki auditorlarning lavozim yo'riqnomalarida.

Ichki boshqaruvning ko'rsatib o'tilgan elementlari quyidagi asosiy belgilarga ega bo'lishi lozim:

- tez-tez uchrab turadigan munosabatlarda qo'llaniladigan me'yorlardan tashkil topgan bo'lishi. Investitsion auditga tadbiquan bu, avvalambor, ichki audit sub'ektlarining asosiy huquq va majburiyatlarini mustahkamlab qo'yishni bildiradi, aniq vaziyatlarni talqin qilish esa ichki auditorning malakaviy tajribasiga tayanishga asoslanishi kerak;

- ichki audit xizmati faoliyatining turli tomonlariga nisbatan me'yorlar tizimidan iborat bo'lishi. Bunday xususiyatlarga ko'proq ichki audit standartlari ega bo'lishi lozim, bu standartlar ichki audit tizimi ishining ham tashkiliy, ham uslubiy jihatlarini tartibga soladi;

- ular daxldor bo'lgan xodimlar uchun majburiy tusga ega bo'lishi kerak. Ichki auditni ichki boshqarish tizimida alohida xodimlar uchun ishlab chiqiladigan lavozim yo'riqnomalari ko'proq aniq sub'ekt tomon yo'nalganlikka ega. Ichki audit standartlari ham muayyan sub'ektlar – ularni bajaruvchilarga qaratilgan;

- yozma shaklda qayd etilishi lozim.

Fikrimizcha, ichki audit xizmatining ishlash tartibi xo'jalik sub'ektining investitsion faoliyatida ham, umuman moliviy-xo'jalik faoliyati uchun ham tegishli buyruq bilan rasmiylashtirilishi kerak.

Xo'jalik sub'ektining investitsion jarayonlarini samarali audit qilish uchun ichki audit xizmati ichki audit standartlarini ishlab chiqishlari kerakki, ularda investitsion faoliyat ichki auditining xususiyatlari o'z aksini topishi lozim.


Dunyo taraqqiyotida raqamli texnologiyalarning o'rni va ahamiyati yil sayin ortib bormoqda. Ayniqsa, texnik transformatsion jarayonlarning moliyaviy sektorlarga keng tadbiqu etilishi bank tizimlari, to'lov operatsiyalari, kreditlash va boshqa shu turdagi xizmatlar samaradorligini yanada oshirmoqda. Moliyaviy xizmatlarni yaxshilaydigan va optimallashtiradigan bu xildagi texnologiyalar – "Fintex" (ing. "Fin Tech") nomi bilan yuritiluvchi moliyaviy texnologiyalar hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ham raqamli iqtisodiyot rivoji bo'yicha hukumat tomonidan bir qancha ijobiy ishlar qilinmoqda, xususan Prezidentning Oliy Majlisga Murojaatnomasida (2020) "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda hamda raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, meni juda qattiq tashvishga soladigan va bezovta qiladigan eng og'ir illat – korruptsiya balosini yo'qotishda ham ular samarali vositadir. Buni barchamiz teran anglab olishimiz darkor" deb hamda, "Afsuski, bank tizimi raqamli texnologiyalarni qo'llash, yangi bank mahsulotlarini joriy etish va dasturiy ta'minotlar bo'yicha zamon talablaridan 10-15 yil orqada qolmoqda. 2020 yildan boshlab har bir bankda keng ko'lamli transformatsiya dasturi amalga oshiriladi. Bu borada banklarimizning kapital, resurs bazasi va daromadlarini oshirish alohida e'tiborimiz markazida bo'ladi" deb ta'kidlab o'tganlari alohida ahamiyatga molikdir.

Banklar faoliyatida raqamli iqtisodiyotning qulayliklari sifatida, to'lovlar uchun xarajatlarning kamayishi (masalan, bankka borish uchun yo'lkira va boshqa resurslar tejiladi),

tovarlar va xizmatlar haqida ko'proq va tezroq ma'lumot olinishi, raqamli dunyodagi tovar va xizmatlarning jahon bozoriga chiqish imkoniyatlari kattaligi va Fidbek (iste'molchi fikri)ni tez olish hisobiga tovar va xizmatlar jadal takomillashtirilishi misol bo'la oladi.

Ma'lumki, raqamli iqtisodiyot davrida tijorat banklari tomonidan aholiga innovatsion texnologiyalarni keng joriy etgan xolda bank xizmatlarini ko'rsatishda internet global tarmog'i foydalanuvchilarining soni muhim o'rin tutadi.



2-rasm. Masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilar soni (turlari bo'yicha) 2021 yil xolatiga¹

O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi ma'lumotlariga ko'ra mamlakatda internet tarmog'idan foydalanuvchilarning umumiy soni 2020 yil boshida 20 mln nafardan oshgan. Bu ko'rsatkich 2019 yil boshiga nisbatan 36% ga oshganini ko'rsatadi. Mobil internet foydalanuvchilarning soni esa 3,504 mln ga yetgan. Mobil telefonlar aholini qaysi holati (harakatdami, turg'unmi)dan qat'i nazar, internetdan foydalanish imkonini bermoqda. Internet va mobil aloqaning barcha foydalanuvchilari banklar uchun istiqbolli mijozlar hisoblanadi. Shuning uchun tijorat banklarining masofaviy bank xizmatlari doirasini kengaytirish va ularning qulay tomonlarini ko'rsatib berish strategik vazifaga aylangan. Bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish tizimlari – bu mijozning masofadan bergan topshiriqlariga asosan (bankka kelmasdan) bank xizmatlarini taqdim etish texnologiyalaridir.

2-rasm ma'lumotlaridan, respublika bo'yicha 2021 yil holatiga bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlaridan foydalanuvchilar jami soni 10153,4 mingta bo'lib, shundan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar soni 691 mingtani tashkil etgan bo'lsa, jismoniy shaxslar soni esa 9,4 mln.tani tashkil etdi. Bu esa, 2020 yil holatiga (7959,1 mingtaga) nisbatan bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlaridan foydalanuvchilar jami soni 127,6% ni, mos ravishda yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar soni (359,7 mingtaga nisbatan) 186,6% ni hamda jismoniy shaxslar soni (7599,3 mingtaga nisbatan) 124,5% ni tashkil qilganligidan dalolat beradi.

Hozirda, bank sohasidagi islohotlarning asosiy maqsadi – tijorat banklarini mijoz uchun ishlashga o'rgatishdan iboratligini inobatga olib, aholida bank tizimiga nisbatan ishonchni shakllantirish va banklar faoliyatiga chetdan aralashishga chek qo'yish dolzarb masala hisoblanadi. Shu maqsadda banklarda axborot texnologiyalarini keng tatbiq etish orqali ularning dasturiy ta'minotini tubdan yangilash, zamonaviy kadrlar tayyorlash maqsadida xorijiy

¹ Manba: <http://infocom.uz/>- saytlari ma'lumotlari asosida tayёрланди.

mutaxassislar bilan birgalikda davlat banklarida zamonaviy bank amaliyoti, menejmenti va xizmatlarini joriy etish uchun rahbarlik lavozimlariga xorijiy yetakchi moliya institutlarining malakali mutaxassislarini jalb etish jarayonlarini izchil davom ettirish, hamda kreditlash amaliyotida «kredit tarixi» axborot tizimini to'liq ishga tushirish zaruriyati ortgan.

Xulosa va takliflar

O'zbekiston tijorat banklarining jahon banklari bilan hamnafas bo'lib yashashi integratsiyalashuv va globallashuv jarayonlarining faollashuviga keng yo'l ochmoqda. Bir tomondan integratsion jarayonlarning rivojlanishi zamonaviy AKTdan foydalanishni taqozo etsa, ikkinchidan, biznes transformatsiyasini vujudga keltirdi. Ushbu jarayonlarni iqtisodiy-siyosiy jihatdan o'rganish va ilmiy xulosalar chiqarish davr talabi hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyot korruptsiya va «qora iqtisodiyot»ning asosiy kushandasidir. Chunki, raqamlar hamma narsani muhrlaydi, xotirada saqlaydi, kerak paytda ma'lumotlarni tez taqdim etadi. Bunday sharoitda biron ma'lumotni yashirish, yashirin bitimlar tuzish, u yoki bu faoliyat haqida to'liq axborot bermaslikning iloji yo'q, kompyuter hammasini namoyon qilib qo'yadi. Ma'lumotlar ko'pligi va tizimliliigi yolg'on va qing'ir ishlarga yo'l bermaydi, chunki tizimni aldash imkonsiz. Natijada "iflos pullarni" yuvish, mablag'larni o'g'irlash, samarasiz va maqsadsiz sarflash, oshirib yo yashirib ko'rsatish imkoni qolmaydi.

Fikrimizcha innovatsion va axborot texnologiyalari orqali faoliyat yuritadigan kichik biznes sub'ektlarini rivojlantirish bo'yicha tijorat banklari tomonidan quyidagi chora-tadbirlarning bajarishiga alohida e'tibor qaratish lozim:

1. O'zbekiston bank amaliyotida innovatsion onlayn kreditlash xizmatlarini yo'lga qo'yish zarur.

Rivojlangan davlatlar bank amaliyotida kreditlash amaliyoti onlayn tarzda keng qo'llanilmoqda. Bu xizmat turini takomillashtirishda internet tezligi va sifatini yaxshilash, kichik biznes sub'ektlarining kompyuter savodxonligini oshirish lozim. Chunki, innovatsion onlayn kreditlash kichik biznes sub'ektlarini ko'p kuch va vaqt sarflamasdan kreditlash amaliyotiga bo'lgan talabini qondirish bilan ifodalash mumkin.

2. Tijorat banklari kredit amaliyotida xo'jalik sub'ektlari faoliyatidagi sun'iy kredit boqimandalikni yuzaga keltirish holatlarini bartaraf etish maqsadida innovatsion va axborot texnologiyalari orqali faoliyat yuritadigan kichik biznes sub'ektlariularga «kredit ta'tili» berishni yo'lga qo'yish zarur.

Fikrimizcha, tijorat banklari tomonidan innovatsion va axborot texnologiyalari orqali faoliyat yuritadigan kichik biznes sub'ektlariga ajratiladigan kreditlarni asosiy qarz va foizlarini qaytarish muddatlarini ularni ishlab chiqarish davridan kelib chiqqan holda belgilanishi, uning kelgusidagi faoliyatining rivojlanishiga madad bo'lgan bo'lardi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Alex Tapscott, Don Tapscott. Blockchain Revolution: How the Technology Behind Bitcoin is Changing Money, Business, and the World, 2016, 324 pages.

2. Aripov A.N. Axborot kommunikatsiyalar sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish muammolari. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. -Toshkent, 2004.- 24 b.

3. Ilxamov Sh.I. Audit (1-qism) Darslik. T.: Iqtisodiyot, 2018y.

4. Do'smuratov R.D. Audit asoslari. Darslik. T.: -2003.- B. 245.

5. Sotnikova L.V. Vnutrenniy kontrol i audit. Uchebnik. - M.: Finstatinform, 2001. -S. 42-49.

6. Danilevskiy Yu.A., Shapiguzov S.M. i dr. Audit: Ucheb. posobie. - 2-e izd. pererab. i dop. - M.: Izdatelskiy dom FBK-PRYeSS, 2018. - S. 139.

7. Skobara V.V. Audit. Metodologiya i organizatsiya. - M.: Delo i servis, 2008. -S. 195-198.

8. Ilxamov Sh.I. Audit jarayonida ichki nazorat tizimini baholash metodologiyasi. Monografiya. T.: Iqtisodiyot, 2012y.

9. Ilxamov Sh.I. Amaliy audit (Darslik). T.: Iqtisodiyot, 2018y.
10. Audit. 1-2 jild. Darslik. M.M. Tulaxodjaeva va Sh.I.Ilxamov umumiy tahririda tayyorlangan. T.: Norma, 2008y.
11. Alimov R.X. Axborot tizimlari va texnologiyalari: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik, - T.: Sharq, 2000. - 592 b.
12. Dadabaeva R.A. Menedjment informatsionnyx sistem. Uchebnoe posobie,- T.:Iqtisodiyot,2016.-402 s.
13. Kobulov V.K. Algoritmizatsiyavsotsialno-ekonomicheskixsistemax. -Tashkent: Fan, 1998.- 320 s.
14. Tapskott Don. "Elektronno-tsifrovoe obshchestvo: Plyusy i minusy epoxы intellekta. - Kiev: ITN Press, 1999.
15. Musaliev A.A., Alimov Q. Menedjment informatsionnyx sistem. -T.: Fan, 2007.- 342 s.
16. Musaliev A.A., Begalov B.A. Menedjment informatsionnyx sistem. Monografiya. – T.: Fan, 2007.- 342 s.
17. Gulyamov S.S., va boshq. "Raqamli iqtisodiyotda blokchaey texnologiyalari".O'quv qo'llanma 21-22 betlar.TMI 2019 yil -447 bet;
18. G'ulomov S.S., Begalov B.A. Iqtisodiy informatika. Darslik. – T.: O'zbekiston, 2010. – 722 b.
19. (Farmon 2018) "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida".
20. (Qaror 2018) "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida".
21. (Qaror 2018) "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3620 Qarori;
22. (Qaror 2018) "Milliy to'lov tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3945 qarori.